



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI
O‘ZBEK TILINI RIVOJLANTIRISH JAMG‘ARMASI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI DAVLAT
TILIDA ISH YURITISH ASOSLARINI O‘QITISH VA MALAKA OSHIRISH
MARKAZI

“DAVLAT TILI TARAQQIYOTI: MUAMMO VA YECHIMLAR”

mavzusidagi V respublika an’anaviy ilmiy-amaliy anjumani

MATERIALLARI

“BOOKMANY PRINT”
TOSHKENT – 2025

UO‘K: 494.375

KBK: 81.633.1

D 26

Davlat tili taraqqiyoti: muammo va yechimlar [Matn]: to‘plam / Sh.Sirojiddinov.
– Toshkent: Bookmany print, 2025. – 450 b.

Mazkur to‘plam “Davlat tili taraqqiyoti: muammo va yechimlar” mavzusidagi V respublika an’anaviy ilmiy-amaliy anjumaniga tilshunos olimlar, vazirlik, idoralar, mahalliy ijro etuvchi organlarning davlat tili bo‘yicha maslahatchilari hamda tadqiqotchilar tomonidan yuborilgan materiallardan tashkil topgan. Undagi maqolalarda davlat tilining dolzarb muammolari, ularni hal qilish bo‘yicha takliflar, yechimlar berilgan. To‘plam tilshunoslar, professor-o‘qituvchilar, tadqiqotchilar, magistrlar va talabalar uchun mo‘ljallangan.

(Maqolalarning ilmiy saviyasiga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar).

Mas’ul muharrir:

Sh.Sirojiddinov, filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

I.Azimov, filologiya fanlari doktori, professor

A.Eminov, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

B.Jo‘rayeva, filologiya fanlari doktori, professor

M.Abdiyev, filologiya fanlari doktori, professor

F.Bobojonov, filologiya fanlari doktori, dotsent

M.Saparniyozova, filologiya fanlari doktori, dotsent

M.Hakimova, filologiya fanlari doktori, professor

M.Umirzoqova, filologiya fanlari doktori, dotsent

H.Yodgorov, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

H.Suyunov, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

N.Quldashev, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazi Ilmiy-metodik kengashida nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-06-774-7

© “Bookmany print” nashriyoti, 2025.

QORAQALPOG'ISTONDAGI O'ZBEK SHEVALARINING RIVOJLANISHIDA ETNIK VA MAISHIY OMILLAR TA'SIRI

Oybek NURJANOV*

Annotatsiya

Ushbu maqola Qoraqalpog'istondagi o'zbek shevalarining taraqqiyoti va rivojlanishida etnik va maishiy omillar hamda shunga bog'liq jihatlarning ta'siri masalasiga bag'ishlangan. Qoraqalpog'iston hududidagi o'zbek shevalarining o'ziga xosligi, ularning boshqa shevalar bilan o'zaro aloqalari to'g'risida o'tkazilgan taqdqiqotlar negizida to'plangan ma'lumotlar to'g'risida fikrlar bildirilgan. Ma'lumotlar asosida o'zbek shevalarining fonetik, leksik va grammatik xususiyatlari hududlar miqyosida qiyosan o'rganilgan. Qoraqalpog'istondagi o'zbek shevalarining rivojlanishida etnik omillarning ta'siri metodologiyasi va o'rganish usullari xususida tavsiyalar berib o'tilgan. Xalqning etnik turmush tarzidan kelib chiqqan holda shevalar rivojiga salbiy ta'sir qiluvchi omillarni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: sheva, dialekt, etnik omil, maishiy omil, etnografiya, йоғич, оқлав, кәпкыр, сыпра, рәпидә, сийхәк

The Influence of Ethnic and Social Factors on the Development of Uzbek Dialects in Karakalpakstan

Abstract

This article is devoted to the issue of the influence of ethnic and everyday factors and related aspects on the development of Uzbek dialects in Karakalpakstan. Opinions are expressed on the data collected on the basis of research on the specifics of Uzbek dialects in the territory of Karakalpakstan, their interrelationships with other dialects. Based on the data, the phonetic, lexical, and grammatical features of Uzbek dialects were comparatively studied at the regional level. Recommendations are given on the methodology and methods of studying the influence of ethnic factors on the development of Uzbek dialects in Karakalpakstan. Based on the ethnic way of life of the people, recommendations were given to eliminate the factors that negatively affect the development of dialects.

Keywords: dialect, dialect, ethnic factor, household factor, ethnography, yog'ich, oqlav, köpkir, s'pra, räpid, siyxäk

Etnografik leksikaning vujudga kelishi juda qadim zamonlarga borib taqaladi. Jahonda tarqalgan barcha elat va xalqlarning paydo bo'lishi, ularning kasb-hunarlari, mehnat faoliyati tarixiy asarlar va muqaddas kitoblar-u xalq og'zaki ijodida mavjud afsona va rivoyatlarda o'z aksini topgan. U esa ba'zan nafaqat kasb-hunar

* Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent. Qoraqalpoq davlat universiteti.

tarmoqlarining mavjudligidan, balki ularning muayyan diniy e'tiqodlaridan ham dalolat beradi. Shunday ekan, etnografik leksika til lug'at tarkibida eng qadimgi qatlamni tashkil etadi. Umuman, etnografizmlarni tekshirish muayyan hudud aholisining va o'zbek xalqining etnogenezi masalasini yoritishga ko'maklashadi.

Ma'lumki, o'zbek xalqining etnik asosini, etnogenezini Movarounnahr va Xorazmda yashagan sak, massaget, so'g'd, xorazmiylar kabi etnik birliklar tashkil etadi. Bulardan tashqari, Markaziy Osiyodagi, O'rta Osiyo va Orol bo'yida yashagan qadimgi va o'rta asrlarda har xil turkiy qabilalar ittifoqiga kirgan qangli, qarluq, qipchoq kabi turkiy tillarda so'zlashuvchi etnik elementlar ham ishtirok etgan. Bu jarayonda hozirgi xalqlarning tili, madaniyati va ba'zi antropologik, etnografik belgilari aks etgandir (Абдуллаев, 1961, 84 бет). Garchi hozirgi kunda ushbu hududda yashovchi aholi o'zlarining urug' va qabilaga bo'linishlarini unutgan bo'lsalar-da, etnik nomlar asosida vujudga kelgan joy nomlari anchagina qismni tashkil etadi. Bu dalil shuni ko'rsatadiki, mazkur joylarda yashovchi aholi o'zining etnik bo'linishini uzoq davrlargacha saqlab kelgan. Darhaqiqat, o'zbek xalqining etnik komponentlaridan biri o'g'uz qabilalari konglomerati (turli birliklarning tabiiy ravishda, tizimsiz to'qnashuvi)ga kirgan sayot, bayot, ovshar, juvandir, qiniq, bijanak va boshqa, shuningdek, qipchoq qabilalariga kirgan kenagas, nukus, qatag'on, uyg'ur, mang'it, qangli, qo'ng'iroq, nayman kabi o'nlab etnonimlar bilan ataluvchi joylar uchraydi.

Turkman xalqining etnik tarkibini tashkil etgan ayrim urug'-qabila nomlari, jumladan, chovdur, yovmut, alieli, xizireli kabilar ham hozirgi joy nomlarining ma'lum qismini tashkil etadi. Bulardan tashqari, qozoq xalqiga xos bo'lgan etnonimlar, shuningdek, umuman turkiy xalqlar etnik tarkibida uchramaydigan nomlar ham mavjud (Adilova, 2018, 64-bet).

Etnografik ma'lumotlarning guvohlik berishiga qaraganda, bu yerda yashovchi o'zbeklar kelib chiqishi jihatdan bir xil emas. Shuning uchun ham ular janubiy va shimoliy o'zbeklarga ajratiladi. Janubiy o'zbeklar qadimgi xorazmiylarning shimoldan ko'chib kelgan Oltin O'rda o'zbeklari va boshqa turkiy xalqlar bilan aralashgan avlodlaridir. Umuman, ma'lum xalqlar guruhida etnonimik parallelarning uchrashi ularning tillarida ham ozmi-ko'pmi yaqinliklar ishora qiluvchi muhim dalildir. Boshqacha qilib aytganda, Qoraqalpog'istondagi o'zbek shevalari (umuman, o'zbek tilining qipchoq shevalari) bilan qipchoq guruhidagi turkiy tillar va shevalar o'rtasidagi lingvistik o'xshashliklarning mavjudligi shu tillarda so'zlashuvchi xalqlarning asrlar davomidagi iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy munosabatlari va xususan, tarixiy-etnik aloqalari kabi ekstralingvistik faktlar bilan ham izohlanadi. Qoraqalpog'istondagi qipchoq lahjasida so'zlovchi o'zbeklar xotirasida saqlanib qolgan urug'-qabila nomlaridan anchasi qoraqalpoqlarda ham, no'g'aylarda, boshqa qipchoq guruh turkiy xalqlarda ham uchraydi (Borovkov, 1944, 135-bet).

Xullas, o'zbeklar va qoraqalpoqlar uchun mushtarak bo'lgan ushbu urug'-qabila nomlari bu xalqlarning qadimdan bir-birlariga yaqin bo'lganligidan dalolat beradi. Ularning tarixiy aloqalari juda uzoq o'tmishga borib taqaladi.

Ibtidoiy davrda odamzot tabiatda mavjud tayyor mahsulotlardan turli usul va yo'llar bilan topib (yig'ib-terib, ov qilib) iste'mol qilib kelgan. Jumladan, Osiyo qit'asida qadimdan yovvoyi bug'doy, Markaziy Amerikaning ko'llarida yovvoyi sholi o'sgan, Amerikada turli yemishli ildizlar va mevali daraxtlar inson yashashi uchun zarur mahsulotlarni topish manbai bo'lgan. Ammo davr o'tishi bilan odamzotning ko'payishi natijasida tabiiy sharoit inson tirikchiligi uchun kamlik qila boshlagan. Asta-sekin odamlar o'z mehnati va iste'dodi bilan zarur mahsulotlarni sun'iy ravishda xonakilashtirib yetishtira boshlagan. Shu tariqa insoniyat tarixida yashash uchun kurash, turli xil mashg'ulotlar va kasb-hunarlarini ijod qilish va olamni yaqindan bilish harakati boshlangan. Demak, har bir xalqning asriy tajribasini o'zida mujassam qilgan lisoniy boyliklarni asrab qolish, uni ilmiy tahlil qilish, keyingi avlodlarga yetkazish hozirgi fan oldida, xususan, tilshunoslik oldida turgan muhim masalalardan biri hisoblanadi. Bu borada ma'lum til shevalarida yillar davomida shakllangan maishiy lingvistik birliklar va ularni tadqiq qilish juda muhimdir. Quyida mazkur hudud shevalaridagi maishiy turmush bilan bog'liq etnografizmlarga e'tibor qaratamiz.

Qoraqalpog'iston o'zbek shevalaridagi o'ziga xoslik sheva vakillari nutqida, tilining barcha sathlarda uchraydi. Shevalarda uchraydigan xo'jalik va ro'zg'or asboblarini ifodalaydigan etnografik birliklarning ko'pchiligida boshqa o'zbek shevalarida bo'lgani kabi umumiyliklar ham mavjud. Bular: yog'ich, oqlav, kâpkir, s'pra, räpidä, siyxäk kabi. Bu etnografik birliklar barcha o'zbek shevalari uchun mushtarak bo'lib, deyarli hammasida bir xil leksik-semantik xususiyatga ega.

Ro'zg'or asboblarini ifodalovchi terminlarning yana bir xususiyati shuki, ularning ba'zilar, umuman, boshqacha ko'rinishga ega, ammo turlicha nomlansa ham, leksik-semantik va grammatik jihatdan bir xil tushuncha va belgi bildiradi. Masalan, *lakki - tarelka, kasa – piyola//tovoq, paygir – xamirturush, la'li – lagan* kabi. Sh.Nosirov o'zbek shevalarining rang-barangligini e'tirof etgan holda, o'z tadqiqotlarida shunday misolni keltiradi: "Jizzax shahri va rayoni shevasida *ayrichökä – yantoq* olishda ishlatiladigan cho'p. Xorazm shevalarida ham *ayrichökä /ayri yava* shaklida ishlatiladi. Forish rayoni shevasida fonetik, morfologik, ayniqsa, leksik xususiyatlari jihatidan xarakterlidir: *qap' – eshik, caqa – to'g'on, tölä – bog'polizda vaqtincha yashash uchun ishlatiladigan imorat* kabi (Do'simov, 2014, 9-bet).

Xorazm qipchoq shevalarida esa bu so'zlarni *qap' – eshik, caqa//bogät – to'g'on, dölä – uzoq yerlarda dehqonchilik qilish yoki chorvachilik qilish uchun qurilgan imorat, kapa* shaklidagi ko'rinishlari mavjud. Ro'zg'or asboblarini ifodalovchi etnografizmning ko'pchiligi qadimgi manbalarda quyidagicha shaklda uchraydi.

M.Saparovning yozishicha, “Yonma-yon, qo‘shni bo‘lib yashashlari natijasida o‘zbek tili shevalarida turkmancha, turkman tili shevalarida o‘zbekcha lingvistik belgilar paydo bo‘ldi”. Bu fikrni Xorazm qipchoq lahjasi yoki Qoraqalpog‘istondagi o‘zbek shevqalari bilan qoraqalpoq tiliga nisbatan ham qo‘llash mumkin. Qoraqalpoq tili ham qipchoq lahjasiga kirishi nuqtayi nazaridan qarasak, Xorazm qipchoq lahjasi bilan ancha yaqinliklar seziladi: *sumäläk (o‘zbekcha) – sömölök (qoraqalpoqcha)* kabi bir xil leksik ma’no anglatuvchi etnografik leksik birliklar anchagina miqdorni tashkil etadi (Saparov, 1988, 113-bet).

Har bir xalqning urf-odatiga xos va mos keladigan milliy kiyimlari mavjud. Kiyim-bosh aslida insonning hayotiy zarurati natijasida shakllangan. Milliy kiyimlarning har bir xalqda o‘ziga xos belgilari bilan ajralib turishi ularning urf-odatlariga bog‘liqligidan tashqari dini va shu yerning iqlim sharoiti kabi boshqa omillarga ham bog‘liq. Har bir kiyimning o‘ziga xos belgilari va kiyish davri bor. Mazkur hududda ikki lahja vakillari yashayotganligi sababli ham ularning nomlanishida har xilliklar bo‘lishi ehtimoldan holi emas. Jumladan, bosh kiyimning tikilish usuli va tovariga qarab turlicha nomlari bor. Qishki bosh kiyimlar: *boyarka, gömmä toppi (o‘g‘uz) – papaq, tumaq (qipchoq), kubanka* va hokazo. Vohada azaldan bosh kiyimi sifatida qo‘zi terisidan foydalanishgan. Qish oylari chögirmä, yoz oylari taxya kiyib yurilgan. Junlari uzun, tegrasi katta cho‘girma silkmä chogirmä, tegrasi kichik va yengil tikilgani qirma chogirmä deb yuritilgan. M.Bo‘ranovning ta’kidlashicha, “Shimoliy Xorazmda cho‘girma tikiladigan teri turini tossi qara deb atashadi” (Xonxujayeva, 2020, 54-bet).

Chopon ham cho‘girma kabi qadimiy bo‘lib, uning ham mavsumiy turlari mavjud. Qipchoq shevalarida choponning quyidagi turlari nomlari bor: yalaqat – kuzda kiyiladigan chopon, alacha ton – yo‘l-yo‘l matodan tikilgan chopon, chäkmän – tevaragi qizil hoshiya bilan tikilgan sariq matodan bo‘lgan uzun kiyim. Bundan tashqari, qish oylarida sarg‘ish tusli qo‘y terisidan uzun to‘n kiyish ham yerli xalqning odatidir. Bu kiyimni asosan turkmanlar tikishgani uchun *turkmani postin, postin, silkmä postin* nomlari bilan yuritiladi. Bundan tashqari, *jäläk //jäläpkä* kabi yengsiz milliy kiyimlar ham mavjud. Bu kiyimlarni, asosan, voha aholisining o‘ziga xosligi bilan ajralib turishi nuqtayi nazaridan etnografizm sirasiga kiritish o‘rinli. Keyingi davrlarda insonlar hayotiga yevropacha madaniyatning kirib kelishi natijasida ko‘pgina milliy kiyimlar unutilib ketgan. Ilgari odamlar kiyimlarni har bir matoning rangiga qarab, har bir odam o‘zining yoshiga mos kiyim kiygan. Masalan, qizil gulli matodan qizlar, ko‘k, qora gulli matolarni keksa ayollar, faqat oq matoni azador ayollar kiyishgan. Milliy kiyimlarning yanada chiroyliroq ko‘rinishi uchun milliy taqinchoqlardan ham foydalanishgan. Milliy taqinchoqlar, asosan, aslzoda-zodagon ayollarda bo‘lgan. Masalan, hozirgi davrda esa deyarli milliy taqinchoqlarning nomlari ham unutilgan. Chunki fan, madaniyat va ishlab

chiqarishning taraqqiyoti natijasida milliy o'ziga xoslikni bildiruvchi buyumlar, nomoddiy tushunchalar hamda ularning nomlari butunlay iste'moldan chiqib arxaiklashib, nafaol so'zlar qatlamiga o'tib bormoqda.

Masalan, lächäk, qasava, päränji, chadra, chariq, belbau, äräväk kabi leksemalarni ushbu guruhga kiritish mumkin. Lekin azaldan ishlatilib kelinayotgan shayi köyläk, minjiq, bombarx, sirg'a, marvarid kabilar sheva va dialektlarda hozir kunda ham iste'molda. Kiyim-kechak va taqinchoqlarni ifodalovchi leksik birliklar ham davrlar o'tishi bilan turli lisoniy o'zgarishlarga uchrab, har xil qadimiy manbalarda turlicha ko'rinishga egadir. ʻZyäk (qipchoq lahjasida), sällä (qipchoq lahjasida) – amoma (NA), ton (qipchoq lahjasida) – jubba (NA), taxya (qipchoq lahjasida) – kallapo'sh (NA), belbau (qipchoq lahjasida), qurshag (DLT), tumaq (qipchoq lahjasida) – börk (DLT), chariq (qip.) – charuq (DLT), jäläpkä (qipchoq lahjasida) – jäläk (NA) – ichmäk (DLT) kabi. Hozirgi davrda bunday kiyimlar zamonaviy urfdan chiqqanligi natijasida ularni ifodalovchi terminlar ham tarixiylik kasb etgan bo'lib, asosan, ular o'rniga neologizm sifatida paytinka, partuq, yupka, tufli, tros, sep, sepochnka, bilägʻzyäk kabi terminlar kirib keldiki, ularni ham shevada, ham adabiy tilda baravar ishlatilganligi sababli adabiy-dialektal etnografizmlar qatoriga kiritamiz.

Xulosa qiladigan bo'lsak, odamlar o'tmish davrida o'z kayfiyati, xohish-irodasiga qarab o'zlaricha turli harakatlar qilganlar. Bu harakatlar ularning quvnoqligi yoki xafaligini ifodalagan. O'sha davrlarda ko'p narsalar raqamlarga bog'langan va ba'zi raqamlarni ilohiylashtirganlar. Masalan: besh kunlik dunyo, besh kunim – xush kunim, ishim besh kabi iboralar paydo bo'lgan. Ba'zi bir raqamlar marosim nomi sifatida qo'llansa, ba'zi birlari bolalar o'yinlari nomlarini bildirgan: beshtash – beshta toshni tepaga otib, tushirmasdan ilib olish o'yini; uchdan puch – o'yin shartlarini uch marta takrorlaganda ham maqsadga erishilmasa, yutgani bekor qilingan. Ayrim tadqiqotlarda ba'zi raqamlar (masalan, to'rt), ayrim ishlarda raqamlarning magiyasi silsilaviy shaklda o'rganilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

- Абдуллаев Ф. (1961). *Ўзбек тилининг Хоразм шевалари*. Тошкент.
- Adilova G.A. (2018). *Qoraqalpog'iston qozoqlari etnografizmlarining lingvomadaniy tahlili*. Fil.fan.bo'yicha fals.dok. (PhD) dis. Nukus.
- Borovkov A.K. (1944). *O'zbek sheva-lahjalarini tekshirishga doir savol-javoblar*. Toshkent.
- Do'simov Z., O'razboyev A. (2014). *Xorazmiy tili leksikasi bo'yicha kuzatishlar // Filologik tadqiqotlar (ilmiy to'plam)*. Toshkent.
- Сапаров М. (1988). *Хоразм воҳасидаги туркий тилларнинг ўзаро алоқалари*. Тошкент: Фан.
- Xonxujayeva A.S. (2020). *Tojik tilining to'y va motam marosimlariga oid etnografik leksikasi (Samarqand lahjasi asosida)* Fil.fan.bo'yicha fals.dok. (PhD) dis. Samarqand.